



KARANTINGA OID HUQUQBUZARLIK LARNING HUQUQIY TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti
O'rozmatova Elmira Farhod qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoiy va ma'muriy qonunchiligidagi karantinga oid huquqbuzarliklar tushunchasi, ularning tarkibi: obyekt, subyekt, obyektiv tomon, subyektiv tomoni, karantin tushunchasi va karantinga oid cheklovlar, xorijiy davlatlar qonunchiligidagi karantinga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: karantin, epidemiya, huquqbuzarlik, Covid-19, pandemiya, sanitariya, cheklov, sanitariya epidemiologik osoyishtalik, tibbiy ko'rik, sanitariya muhofazasi, o'simliklar himoyasida karantin, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

Ma'lumki bugungi kunda butun dunyoda ko'plab yuqumli kasalliklar tarqalgan bo'lib har yili ushbu kasalliklar millionlab odamlarning hayotiga zomin bo'lmoqda, eng achinarlisi esa ushbu qurbanlarning kata qismini yosh bolalar tashkil qilmoqda. Insoniyat uchun kata talofat keltirgan bunday kasalliklardan biri 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Uxan shahrida boshlangan Covid-19 epidemiyasi bo'ldi. Ushbu virus boshqa davlatlarga ham tarqalib 2020-yilning 11-martida JSST tomonidan pandemiya deb belgilandi va qator mamlakatlarda karantin cheklovlarini belgilandi. Pandemiya JSST ma'lumotiga ko'ra 2023-yil 5-may kuni bekor qilindi. COVID-19 pandemiyasi roppa-rosa 3 yil, 1 oy, 24 kun davom etdi. Mana shu vaqt oralig'ida koronavirus sabab dunyo bo'yicha 7 millionga yaqin inson halok bo'ldi, 765 milliondan ortiq kasallanish holatlari aniqlandi.



Yuqorida ushbu virus tarqalishi munosabati bilan karantin cheklovleri belgilanganligi haqida aytgandik endi ushbu karantin cheklovlarni mohiyatini yoritib o'tsak.

Karantin (*italyancha “quarantena- qirq kun*), karantinlash- tibbiyotda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga qaratilgan epidemiyaga qarshi ma'muriy va sanitariya tadbirlari majmui bo'lib, ma'lum hududni kasallik tarqatuvchi manbadan muhofaza qilish va uni yo'qotishga, uning bir joydan boshqa joyga tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktik tadbir hisoblanadi. Shu maqsadda karantin e'lon qilingan joyda aholi orasida hamma turdag'i aloqa, bordi keldi keskin cheklanadi. Karantin epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi “Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalari” asosida amalga oshiriladi. Respublika maxsus komissiyasi tomonidan karantin choralari joriy etilishi qonuniy asosda amalga oshiriladi. Uning qarorlari idoraviy mansubligidan va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, barcha tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek fuqarolar uchun majburiyidir. Karantin atamasi tibbiy nuqta'i nazardan tashqari o'simliklar himoyasida ham ishlatiladi.

Belgilangan karantin cheklovlariiga amal qilmaslik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy hamda Jinoyat qonunchiligi asosida javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 54-moddasida epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib unga ko'ra: *Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatli organning maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo'lish —*

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.



Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishining yoki tarqalishining oldini olish maqsadida belgilangan majburiy qoidalarni buzish, shu jumladan karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida shifoxonadagi ichki tartibga riosa etmaslik, davlat sanitariya nazorati organlarining tibbiy tekshiruvdan o'tish va davolanish, karantinni o'tash uchun belgilangan joylarga yetib borish va ushbu joylarni belgilangan muddat davomida tark etmaslik, kasallik yuqish xavfi mavjud bo'lgan davrda muloqotda bo'lingan shaxslar va borilgan joylar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risidagi yoki boshqa qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari, mansabdar shaxslarga esa – o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning obektiv tomoni karantinli sharoitda jamoat joyida niqob taqmasdan yurish, belgilangan majburiy qoidalarni buzish, shifoxonada ichki tartibga riosa etmaslik, karantinni o'tash uchun belgilangan joylarga yetib bormaslik, kasallik yuqish xavfi mavjud bo'lgan davrda muloqotda bo'lingan shaxslar va borilgan joylar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik kabi harakatlardan iborat bo'llib o'n olti yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs ushbu harakatlardan birortasini sodir etgan taqdirda ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 54-moddasi 2-qismi dispozitsiyasida sanab o'tilgan harakatlarni sodir etish odamlarning ommaviy kasallanishi yoki zaharlanishi real xavfini keltirib chiqarsa yoxud odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga yoxud odamlar o'limiga sabab bo'lsa ushbu holatda bunday harakatlarni sodir etgan shaxs kelib chiqqan oqibatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 257¹-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgustdaggi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonunga ko'ra *cheklovchi*



tadbirlar (karantin) deganda yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan ma'muriy tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar tushuniladi. Ushbu qonunga muvofiq sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi hududining sanitariya muhofazasi;
- yuqumli va parazitar kasalliklar o'choqlarida o'tkaziladigan chora-tadbirlar;
- profilaktik emlashlar o'tkazish;
- dezinfeksiya tadbirlari;
- majburiy tibbiy ko'riklar;
- fuqarolarni gigienik o'qitish va tarbiyalash.

O'simliklar himoyasida karantin. Yuqorida karantin tushunchasining o'simliklar himoyasida ishlatilishi haqida aytib o'tgandik. O'simliklar himoyasida karantin - mamlakat hududiga qishloq xo'jaligi ekinlarining juda xavfli zararkunandalari, kasallik qo'zg'atuvchilari va begona o'tlarning kirib kelishidan himoya qilish va zararlanish o'choqlarini aniqlash, ihotalash va yo'qotishga qaratilgan davlat choratadbirlari tizimi hisoblanadi. Hisob-kitoblarga qaraganda o'simlik zararkunandalari va kasalliklari jahon bo'yicha oziqovqat ekinlari potensial hosilining 20—25% ni yo'q qiladi. Mamlakatlararo savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi darajasiga qarab bir mamlakatda uchramaydigan zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlar turlarining boshqasiga kirib kelishi xavfi ortib boradi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida karantinga oid holatlarni tartibga solish bilan bog'liq "O'simliklar karantini to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 107-moddasida o'simliklar karantini obyektlariga va boshqa zararli organizmlarga qarshi kurashishga doir fitosanitariya talablarini (choralarini)



hamda boshqa qoidalarni buzganlik uchun, 108-moddasida esa karantin ostidagi mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish qoidalalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilab qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (yangi tahrir T.2024 // URL <http://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Qonunchillik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Qonunchillik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 31-avgust kungi “O‘simpliklar karantini to‘g‘risida”gi O‘RQ-844-son qonuni. Qonunchillik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>
5. <Http://www.wikipedia.uz> Ochiq Ensiklopediya sayti.